

KORXONA EKSPORT SALOHİYATI VA UNING TARKIBIY TUZILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda taraqqiy etayotgan har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim hisoblangan sanoat korxonalarining barqaror ishlashi, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda korxona eksport salohiyati va uning tarkibiy tuzilishlari yoritib berilgan. Maqolada korxona salohiyatining har xil turlari ko'rib chiqiladi: eksport, iqtisodiy, moliyaviy, bozor, ishlab chiqarish, mehnat, marketing, resurs, kadrlar, intellektual, ilmiy-texnikaviy, boshqaruv, innovatsion, investitsion, axborot va boshqalar. Shuningdek, ushbu maqolada mamlakatimizning to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksportiga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: korxona salohiyati, eksport salohiyati, tashqi va ichki bozorlar, endogen va ekzogen omillar, bozor konyunkturasi, resurs yondashuvi, natijaga asoslangan yondashuv, muvozanatli yondashuv.

ЭКСПОРТНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ПРЕДПРИЯТИЯ И ЕГО СТРУКТУРА

Аннотация. В статье рассматривается устойчивое функционирование промышленных предприятий, выпуск новых видов продукции, создание новых рабочих мест, а также экспортный потенциал предприятия и его структур для экономического развития любой развивающейся страны сегодня. В статье рассмотрены различные виды потенциала предприятия: экспортный, экономический, финансовый, рыночный, производственный, трудовой, маркетинговый, ресурсный, кадровый, интеллектуальный, научно-технический, управленческий, инновационный, инвестиционный, информационный и др. В статье также рассматриваются несколько подходов к определению потенциала предприятия.

Ключевые слова: потенциал предприятия, экспортный потенциал, внешние и внутренние рынки, эндогенные и экзогенные факторы, рыночная конъюнктура, ресурсный подход, результативный подход, сбалансированный подход.

EXPORT POTENTIAL OF THE ENTERPRISE AND ITS STRUCTURE

Abstract. The article examines the sustainable functioning of industrial enterprises, the release of new products, the creation of new jobs, as well as the export potential of the enterprise and its structures for the economic development of any developing country today. The article examines various types of enterprise potential: export, economic, financial, market, production, labor, marketing, resource, personnel, intellectual, scientific and technical, managerial, innovative, investment, information, etc. The article also examines several approaches to determining the potential of an enterprise.

Keywords: enterprise potential, export potential, external and internal markets, endogenous and exogenous factors, market conditions, resource approach, effective approach, balanced approach.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim shartlaridan biri iqtisodiy sub'ektlarning raqobatbardoshligini ta'minlashdir. Respublika prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: «Iqtisodiyotni, avvalo, ishlab chiqarish sohalarini oqilona tashkil qilish, ularga yuksak texnologiyalarni joriy etish, shu asosda zamonaviy korxonalar barpo etib, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, bir so'z bilan aytganda,

O'zbekistonda jahon andozalariga mos, xalqaro bozordagi raqobatga bardosh bera oladigan tizimni yaratish bizdan, shubhasiz, katta vaqt, mehnat va shijoatni talab qiladi»¹.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqa imkoniyatlarini aniqlash ko'pgina sabablarga ko'ra, masalan, korxonaning kelgusidagi strategiyasini ishlab chiqish, raqobatbardoshligini, boshqaruv sifatini va inqirozli vaziyatda rivojlanish barqarorligini baholash uchun zarurdir. Korxonaning turli sohalardagi imkoniyatlarini tavsiflash uchun "salohiyat" tushunchasi qo'llaniladi. Salohiyat bu – mavjud bo'lgan va safarbar etilishi, harakatga keltirilishi, muayyan maqsadlarga erishish, rejani amalga oshirish yoki muammoni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar, zaxiralar, manbalardir, ya'ni shaxs, jamiyat yoki davlatning ma'lum bir sohadagi imkoniyatlar².

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Korxona eksport salohiyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolarini tadqiq etish, korxona salohiyatining tarkibiy qismlarini tahlil qilish hamda korxona salohiyatini aniqlashning turli xil yondashuvlari borasida g'arb olimlaridan J.Neysbit, F.Kotler, H.Holzmuller, G.Armstrong, M.X.Meskon, M.Albert, F.Xedouri, M.Porter, shuningdek, rossiyalik olimlardan I.V.Kuznetsova, S.I.Uskova, Y.E.Kislova, M.Valitov, Kh.Khakimov, I.A.Karachev va boshqa olimlar muhim hissa qo'shishgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham korxona salohiyatining mazmun mohiyati, uning bir qancha tarkibiy tuzilishlari, ularning bir-biriga bevosita ta'siri va bog'liqligi kabi jihatlari chuqur o'rganilgan. Ular orasida B.N.Navruz-Zoda, G.R.Madraximova, M.S.Ashurov, Y.S.Shakirova, I.I.Turaboyev, N.N.Ismatullayeva, I.I.Ibrohimov kabi olimlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan to'qimachilik sanoati korxonalari tanlangan bo'lib, korxonada eksport salohiyatini oshirishning marketing mexanizmini takomillashtirishda, zamonaviy menejment yondashuvlari, tizimli va kompleks yondashuv, funksional yondashuv, analiz va sintez, monografik tahlil, ilmiy abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatuv, abstrakt-mantiqiy kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Korxonalar, ularning tarkibiy bo'linmalari va tadbirkorlik tuzilmalari ishining natijalari iqtisodiy, tashkiliy, texnik va texnologik xarakterdagi bir qancha omillarga bog'liq. Iqtisodiy tadqiqotlarda omil sifatida odatda iqtisodiy jarayonlarning shartlari va ularga ta'sir etuvchi sabablar tushuniladi. Korxonalar faoliyati murakkab va ko'p qirrali. Bu ko'p va xilma-xil omillarga bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadigan o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlar majmuasidir. Rejalarning bajarilishi va boshqaruv dinamikasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar majmuasini chuqur o'rganish korxonalar faoliyatini to'g'ri baholash, ularning iqtisodiy salohiyatining o'sishi uchun zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi³. Iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bozor iqtisodiyotiga o'tgandan so'ng potensial nazariya sohasidagi ko'plab olimlar korxonalarning bozor imkoniyatlarini tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydilar.

Eksport salohiyati – xalqaro bozorning texnik talablari va standartlariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ilmiy va texnologik imkoniyatlarning mavjudligi, shuningdek korxonaning tashqi muhitdagi doimiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyati⁴. Korxonaning eksport salohiyatini baholashda asosiy maqsad samaradorlik va rentabellikni oshirish uchun zaxiralarni aniqlash va amalga oshirish jarayoni bo'lishi kerak. Ya'ni korxonaning eksport faoliyati, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarga minimal xarajatlarni bilan tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi. Eksport

¹ Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga blikda barpo etamiz. Toshkent, 2016. 56 b.

² Turaboyev I.I. Sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatning o'rni// So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali// 7-jild 6-son 13.06.2024

³ Ibrohimov I.I. Korxona iqtisodiy samaradorligini oshirish. Innovation in the modern education system //Vol.2 No.24(2022) 16-21.

⁴ Fokina D.A. Сущность экспортного потенциала предприятий РКП// Актуальные проблемы авиации и космонавтики, 2017 №13 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-eksportnogo-potentsiala-predpriyatiy-rkp/pdf>

salohiyati korxona iqtisodiy salohiyatining dinamik tarkibiy qismi bo'lib, u mavjud va mumkin bo'lgan resurslar va vositalardan kelib chiqib, atrof-muhit omillarini hisobga olgan holda korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga yetkazib berish qobiliyatini ta'minlaydi¹.

Iqtisodiy adabiyotlarda "Korxona eksport salohiyati" tushunchasiga oid turlicha ta'riflar mavjud. Ushbu ta'riflardan kelib chiqadiki, eksport salohiyati tushunchasiga olimlar tomonidan tor va keng ma'noda ta'rif berilgan. Masalan, tadqiqotchi olim J.Neysbitning fikricha, korxonaning eksport salohiyati - iqtisodiy potensialning jadal o'zgaruvchan tarkibiy qismi sifatida belgilaydi, uning tashkiliy-texnik tuzilishi tashqi muhit omillari va ichki sharoitlarning ta'sirini hisobga olgan holda korxonaning missiyasi va maqsadlariga bo'ysunadi, uzoq va qo'shni mamlakatlar bozorlarida ma'lum darajadagi rentabellik bilan barqaror sotish hajmini ta'minlaydi². Yana bir olim I.A.Rusakov nuqtai nazaridan, korxonaning eksport salohiyati deganda korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarilgan mahsulotni chet elga sotish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro kooperativ sanoat jarayonlarida ishtirok etish qobiliyati tushuniladi³. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, eksport salohiyati tushunchasini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Demak, eksport salohiyati nafaqat tovar va xizmatlarni sotish imkoniyati, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatida ham baholash mumkin. Sanoat korxonalarining eksport salohiyati - bu endogen (ichki) va ekzogen (tashqi) omillar ta'sirida tashqi bozorda savdo faoliyatini amalga oshirish qobiliyatidir. Tor ma'noda sanoat korxonalarining eksport salohiyati - bu korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, kadrlar va bozor salohiyatining umumiy rivojlanishi bilan belgilanadigan, korxona mahsulotlarini tashqi bozorda ilgari surish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun joriy yoki potensial qobiliyatidir. Eksport salohiyatining keng ma'nodagi ta'rifi avvalgisidan farq qiladi, ya'ni bunda eksport salohiyati o'zining iste'mol xususiyatlariga ko'ra ham, kelib chiqishi bo'yicha ham jahon darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro moliyaviy jarayonlarda ishtirok etish qobiliyati tushuniladi.

Korxonaning ichki eksport salohiyati mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar yig'indisini o'z ichiga oladi. Bularga tabiiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, moddiy va axborot resurslari kiradi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini rivojlantirishning asosiy omili nafaqat ushbu resurslarning mavjudligi, balki ulardan samarali foydalanish bo'ladi⁴.

Korxonaning tashqi eksport salohiyati korxonaning marketing, logistika, raqobatbardosh mahsulotlarni sotish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Ya'ni ko'pgina korxonalar o'z mahsulot va xizmatlari bilan tashqi bozorlarga chiqish uchun eksport salohiyatidan maksimal darajada foydalanishga harakat qiladilar.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, Uskova S.I., Asailov A.A., Deniels Djon D., Kislova Yu.E. kabi olimlar eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga birlashtirishga harakat qilgan:

- taqsimlanish darajasiga ko'ra - xususiy va umumiy;
- ta'sir qilish muddatiga ko'ra - doimiy va o'zgaruvchan;
- kelib chiqish sohasiga ko'ra - tashqi va ichki;
- faoliyat tavsifiga ko'ra - intensiv va ekstensiv;

¹ Karachev I.A. Определение категории «Экспортный потенциал предприятия» в контексте формирования региональной модели ВЭД. Финансы: теория и практика /Finance: Theory and Practice. 2015;(4):24-37

² Sukhikh D.G., Katz V.M. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Вестник науки Сибири 2015, №2, (17) 62-75 стр.

³ Dadalko V., Dubkov S. Роль экспортного потенциала в социально-экономической системе// Банковский вестник, май 2013 40-43 стр.

⁴ Karachev I.A. Определение категории «экспортный потенциал предприятия» в контексте формирования региональной модели ВЭД. Финансы: теория и практика/Finance: Theory and Practice. 2015;(4):24-37

- ta'sir darajasiga ko'ra - asosiy va ikkilamchi;
- nazorat darajasiga ko'ra - nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan omillarga ajratadi.

Ba'zi iqtisodchilar esa omillarni faqat ikki guruhga ajratadilar: tashqi va ichki, ichki omillar doirasida esa ekstensiv va intensivni o'rganadilar. Bir qator tadqiqotchilar yuqorida muhokama qilingan tasnifni omillar bo'linishining qo'shimcha belgilarini kiritish orqali kengaytiradilar, bu mahalliy va global, ijobiy va salbiy, miqdoriy va sifat omillarini va boshqalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi¹.

M.S.Mokiy, L.G.Skamay, M.I.Trubochkynalar fikricha korxonaning tashqi muhiti deganda korxona joylashgan davlat va hududning, shuningdek iste'molchilar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilarning ta'siri tushuniladi, ular birgalikda bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillarni tashkil qiladi.

Yana bir xorijiy olimlar H.Holzmuller va X.Kasper o'z ishlarida eksport natijalariga ta'sir qiluvchi bir necha o'nlab omillarni aniqladilar va keyinchalik ularni beshta guruhga birlashtirdi:


- korxonaning ob'yektiv xususiyatlari;
- korporativ madaniyat;
- boshqaruvning ob'yektiv xususiyatlari;
- boshqaruvning psixologik xususiyatlari;
- ekologik omillar.

Xorijiy tadqiqotchilar Kotler F., Armstrong G., Meskon M.X., Albert M., Xedouri F., Porter M. xalqaro biznes faoliyat yuritadigan muhit omillarini tahlil qilganda, xususan, korxonaning o'zi odatda kompaniyaning tashqi bozorlardagi faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi to'rtta asosiy omilni - madaniyat, iqtisodiyot, qonunchilik va davlat tomonidan tartibga solish, siyosiy muhitni ajratib ko'rsatishadi. Ichki bozordan tashqarida biznes yuritishda tegishli tartiblar tashqi muhitning muayyan o'ziga xos omillari uchun o'zgartirilishi kerak deb hisoblaydilar.

Eksport faoliyatidan samarali foydalanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, ya'ni eksportni tartibga solishning asosiy vositasi bo'lgan tashqi muhit omillaridan yana biri - bu bojxona tizimi va uni rivojlantirish vazifalaridir. Bojxona tizimining hozirgi holati, tariflarni tartibga solish tashqi savdoni erkinlashtirish darajasini ham tavsiflaydi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati 2017-2024 yillarda sezilarli o'sishni qayd etdi, eksport hajmi va mahsulotlar assortimenti kengaydi va bu soha bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallamoqda. Xorijiy bozorlarga kirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish eksportni yanada oshishiga zamin yaratdi. Quyidagi 1-rasmda biz respublikamizda 2017-2024 yillar oralig'ida to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti hajmini ko'rishimiz mumkin.

¹ Ashurov M.S., Shakirova Y.S. "Korxonalar eksport faoliyati va salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili" // International journal of theoretical and practical research №4, 30.04.2023, 6-18 betlar



1-rasm. O'zbekistonning 2017-2024 yillarda to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti dinamikasi¹

O'zbekistonda to'qimachilik sanoati mahsulotlarining eksport dinamikasi 2017-2024 yillarda bir qator muhim o'zgarishlar va yutuqlarni boshdan kechirdi. Bu davrda to'qimachilik sohasini modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksportni diversifikatsiya qilish bo'yicha mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar olib borildi².

- 2017 yilda O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini asosan MDH mamlakatlari, jumladan Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonga eksport qilgan. Eksport hajmi nisbatan past bo'lib, mahsulotlar asosan xom ashyo (paxta tolasi) va oddiy to'qimachilik mahsulotlaridan iborat edi.

- 2018-2019 yillarda hukumat to'qimachilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni ishga tushirdi. Xususi korxonalar va xorijiy investorlar uchun imtiyozlar yaratildi, bu esa yangi fabrikalar va korxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Eksport hajmi sezilarli darajada oshdi, ayniqsa Tayvan, Turkiya, Xitoy va Yevropa mamlakatlariga eksport kengaydi.

- 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi boshqa sohalar kabi to'qimachilik sanoatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Global talabning pasayishi va logistika muammolari tufayli eksport hajmi biroz pasaydi. Biroq, hukumatning qo'llab-quvvatlash choralari va mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish tufayli soha tezda tiklandi.

- 2021 yilda pandemiya keyin to'qimachilik sanoati tez oyoqqa turdi. Eksport hajmi o'sdi, ayniqsa yuqori sifatli mahsulotlar (ip, gazlama, tayyor kiyim-kechak) eksporti kengaydi. Xitoy, Rossiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari asosiy bozorlarga aylandi.

- 2022 yilda to'qimachilik mahsulotlarining eksporti yanada oshdi. Hukumatning sanoatni qo'llab-quvvatlash dasturlari, shuningdek, xorijiy investorlar bilan hamkorlik kengaydi. Eksport mahsulotlarining assortimenti kengaydi, shu jumladan sport kiyimlari, ichki kiyim va uy-ro'zg'or buyumlari.

- 2023 yilda O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini 65 dan ortiq mamlakatlarga eksport qila boshladi. Eksport hajmi 3 milliard AQSh dollaridan oshdi. Xususi sektor va chet el investitsiyalari sohaning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar va kalava-ip asosiy ulushga ega bo'lgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Yillik hisobotlar va rasmiy statistik ma'lumotlar: stat.uz

² Kun.uz – <https://kun.uz/news/2024/02/22/ozbekiston-3-mlrd-dollarlik-toqimachilik-mahsulotlarini-eksport-qildi>

- 2024 yilda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ortgan bo'lsada, biroq mahsulot eksporti 6,7% ga kamayib, 2,87 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Hukumat yangi bozorlarni egallash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish bo'yicha strategiyalarni amalga oshirmoqda. Yevropa, AQSh va Osiyo bozorlariga eksportning kengayishi kutilmoqda¹.


Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati imkoniyatiga ta'sir etuvchi tashqi muhit omillaridan tashqari korxonaning ichki – muhiti ham mavjudki, ichki muhit deganda u korxonaning strategiyasi, imidji, boshqaruvi, aktivlari, resurslari, ilmiy-ishlab chiqarish salohiyati, mahsuloti, asosiy kapitalning yoshi, moliyaviy tushumlar, kadrlar salohiyati, bozor imkoniyatlari hamda korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari (asosiy ishlab chiqarish fondlari, ularning hajmi, tarkibi, tuzilishi, yoshi, amortizatsiyasi, mehnat unumdorligi, kapital unumdorligi va boshqalar) kiradi².

Korxonaning eksport faoliyati va salohiyatini tahlil qilishda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan yana bir omil – bu mamlakat transport – logistika tizimidir. Korxonaning eksport faoliyatining salohiyatini oshirish va uni o'z vaqtida va sifatli bajarilishida davlatning arzon, sifatli va tezkor transport – logistika tizimini shakllantirmasdan erishib bo'lmaydi. Shubhasiz, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda etkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish juda ham muhim hisoblanadi.

Korxona eksport salohiyatini rivojlantirishning tashqi muhit omili hisoblangan bojxona tizimi hamda transport-logistika tizimini samarali rivojlanishi butun ishlab chiqarish va moddiy resurslar tejamkorligiga erishish, ishlab chiqarishning jadallashuvi, transport xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi.

«Korxona salohiyati»ning tarkibiy qismlari. Korxona salohiyati o'zining tarkibiy tuzilishiga ega. Biz uni 9 ta tarkibiy qismlarga (2-rasm) ajratishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz va har biriga qisqacha tafsilot berib o'tamiz.

2-rasm. Korxona salohiyatining tarkibiy tuzilishi³



¹ Textileexpo.uz – <https://textileexpo.uz/uz/yangiliklar/2024-yilda-ozbekistonda-toqimachilik-ishlab-chiqarishi-osdi-lekin-eksport-67-ga-kamaydi>

² Ashurov M.S., Shakirova Y.S. “Korxonalar eksport faoliyati va salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili” // International journal of theoretical and practical research №4, 30.04.2023, 6-18 betlar

³ Manba: muallif ishlanmasi.

1.Kadrlar salohiyati tushunchasi iqtisodiyotga ilk bor XX asrning 80 yillari boshlarida V.Maksvel tomonidan kiritilgan bo'lib, uning fikricha, "korxonaning yollanma xodimlari ega bo'lgan bilimlar va qobiliyatlarning o'zaro mutanosiblikda ishlab chiqarish jarayonida namoyon bo'lishi kadrlar salohiyatini anglatadi"¹. Ushbu ta'rifda kadrlar salohiyati iqtisodiy atamasining mohiyatini tushuntirishda insonning mehnat qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy qobiliyatlariga asoslanilgan hisoblanadi.

Shunga o'xshash ilmiy qarash I.V.Kuznetsova tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ham o'z aksini topadi. Uning fikricha, "kadrlar salohiyati ijtimoiy-iqtisodiy tizim maqsadlariga erishishda mehnat resurslarining imkoniyatlaridan foydalanilayotgan qismini anglatadi"².

B.M.Genkin fikricha, "kadrlar salohiyati bu insonlarning mehnatda bandligi sharoitida shakllanib, jamlanib boradigan bilim va tajribalarining korxona ishlab chiqarish jarayonida amalda foydalana olishi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy qobiliyatlarini ifodalaydi"³. Olim tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifda kadrlar salohiyati ularning mehnat staji bilan bog'liq holda tushuntirilganligi bilan ahamiyatli hisolanadi. Ushbu holat korxona boshqaruvida ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik rivojlanishi kadrlar salohiyati bilan bevosita bog'liq bo'ladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

2.Ishlab chiqarish salohiyati – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish imkoniyatlari, ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish salohiyati. Ishlab chiqarish faqat mahsulot ishlab chiqarishdan iborat bo'lmay, balki taqsimot, ayirboshlash va iste'molni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish qurollarining o'zgarishi va mukammallashtirishidan boshlanadi⁴.

3.Tadbirkorlik salohiyati – deganda korxonaning ayni damdagi iqtisodiy holatini inobatga olgan holda, kelgusidagi istiqbolli biznes rejalarni prognozlash, moliyaviy imkoniyatlarni to'g'ri baholash, yangi bozorlarni tahlil qilib ularga kirib borish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot tannarxiga ta'sir qiladigan ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish kabi chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

4.Innovatsion salohiyat – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlarini, ya'ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Korxonalarda innovatsiyalarni qo'llash orqali yangicha raqobarga asoslanish mumkin.

Shamil M.Valitov, Almaz Kh.Khakimov kabi olimlarning fikriga ko'ra, innovatsion potentsial nafaqat innovatsiyalar uchun mavjud resurslar, balki innovatsiyalar va investitsiyalar orqali innovatsion salohiyatni rivojlantirishni o'z ichiga olgan innovatsion mexanizmlardir. Har qanday korxonada tizimning mulki sifatida innovatsion potentsial uchta holatda kuzatilishi mumkin: rivojlanmagan, normal rivojlangan va rivojlangan. Innovatsion potentsial tarkibi innovatsiyaning mohiyati, ya'ni yangi ishlanmalarni yaratish va ularni tijoratlashtirish bilan belgilanadi. Innovatsion salohiyatni boshqarish katta vaqt va kuch talab qiladi. Innovatsion salohiyatni amalga oshirish inson resurslari bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, bu jarayonni tartibga solish va boshqarish kerak. Shu munosabat bilan, doimiy o'zgarishlar - bu tashkilot rivojlanishining tabiiy holati va xodimlar ushbu o'zgarishlarga doimo tayyor bo'lishlari kerak degan g'oyani rivojlantirish muhimdir⁵.

5.Marketing salohiyati – korxona salohiyatining ajralmas qismi bo'lib, mahsulot, narx, savdo siyosati va talabni o'rganish sohasida samarali marketing tadbirlarini rejalashtirish va tadbir

1 Fedoseev V.N., Kapustin S.N. Управление персоналом организации: Учебное пособие – М.: издательство "Экзамен", 2016. – s. 99

2 Kuznetsova I.V. Управление кадровым потенциалом в промышленности. // diss. ... k.e.n. Kazan, 2002 – s. 66

3 Genkin B.M., Nikitina I.A. Управление человеческими ресурсами: учебник. – М.: Norma: Infra-M, 2013. – 464 s.

4 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-jild Toshkent, 2000 yil

5 Valitov M.Sh., Khakimov Kh.A. Procedia Economics and Finance 24 (2015) 716-721

etishdir. Bunda is'temolchilarni jalb etish, ularning ehtiyojini qondirish hamda ko'zlangan maqsadga erishish uchun marketing kompleksini qo'llash tartibi ustuvor vasifa hisoblanadi.

Marketing salohiyati biznesni rejalashtirish jarayonida hal qiluvchi element hisoblanadi. Bu bizga bozorga chiqarishni rejalashtirgan mahsulot yoki xizmatlardan qanday foyda olishni kutishimiz mumkinligini aniqlashga yordam beradi¹.

6.Moliyaviy salohiyat – bu mumkin bo'lgan maksimal moliyaviy natijaga erishish uchun kompaniyada yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar. Bugungi kundagi qiyin iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy va ekologik muammolarning vujudga kelishi, kuchayib borayotgan iqtisodiy qarama-qarshilik va ziddiyatlar, kompaniyadan barcha mavjud va potensial moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob berish imkonini beradigan tizimni yaratishni talab qilmoqda.

Kompaniya faoliyatining zarur sharti uning barqaror moliyaviy holatidir, chunki xodimlarga ish haqini to'lash, byudjet, banklar, xom-ashyo yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar, dividendlar to'lash bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishi korxonaning moliyaviy holatiga bevosita bog'liq hisoblanadi².

7.Axborot salohiyati – tashkilot uchun xalqaro miqyosda savdo aloqalarini, eksport va import bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni yuritish, tayyor yoki yarim tayyor xom-ashyo mahsulotlarini yetkazib berish, logistika xizmatlari, savdo hamkorlari bilan o'zaro manfaatli aloqalar, qisqacha aytganda, mahsulot ishlab chiqarishdan uni sotishgacha bo'ladigan barcha jarayonlar korxonaning axborot salohiyati bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Axborot asrida yashayotgan ekanmiz, barcha sohalar kabi sanoat iqtisodiyotini ham axborotsiz tasavvur etish qiyin. Korxonaning ichki moliyaviy hujjatlarini yuritish, kadrlar va mehnat unumdorligini baholab borish, resurslardan oqilona va samarali foydalanish, istiqboldagi biznes rejalarni prognozlashtirish, qolaversa jahonda ro'y berayotgan global iqtisodiy o'zgarishlar, iqlim o'zgarishlari, risklar, xalqaro maydondagi talab va taklif dinamikasi, narxga ta'sir etishi mumkin bo'lgan tashqi omillar kabi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va zaruriy chora-tadbirlarni tayyorlash korxonada yuksak axborot salohiyati mavjudligidan darak beradi.

8.Resurs salohiyati – korxonaning resurs salohiyati uning resurslarining umumiylikini va ma'lum vaqt ichida ulardan foydalanishning maksimal natijasini aks ettiruvchi tizimli yondashuv. Shunga ko'ra, korxonaning resurs salohiyati ma'lum bir vaqtda maksimal iqtisodiy samarani olish imkoniyatini ta'minlaydigan korxonaning barcha resurslarining yig'indisi.

Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini baholash korxonalar faoliyatini strategik tahlil qilish va rejalashtirishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ya'ni korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, kelgusi faoliyatini strategik tahlil qilish va rejalashtirishda dastlab korxonaning resurslari salohiyatini iqtisodiy baholashdan boshlanadi. Umuman olganda, korxona resurslari deganda, korxonada mavjud bo'lgan mablag'lar, zaxiralar, manbalar, vositalar va mehnat obyektlari tushuniladi. Korxona uchun yetarli resurslarga ega bo'lish, belgilangan maqsadlarga muvofiq uning rivojlanishi va normal ishlashi uchun muayyan sharoitlarda zarur imkoniyatlarga ega bo'lishni anglatadi³.

9.Eksport salohiyati – xalqaro bozorning texnik talablari va standartlariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ilmiy va texnologik imkoniyatlarning mavjudligi, shuningdek korxonaning tashqi muhitdagi doimiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyati⁴.

Korxonaning eksport salohiyatini baholashda asosiy maqsad samaradorlik va rentabellikni oshirish uchun zaxiralarni aniqlash va amalga oshirish jarayoni bo'lishi kerak. Ya'ni korxonaning

¹ University of Mary Washington <https://economicdevelopment.umw.edu/blog/2022/01/12/5-steps-to-determine-your-market-potential>

² Kankia A.G. Финансовый потенциал деятельности компаний // Экономика и менеджмент инновационных технологий. 2013. № 3

³ Madraximova G. R. Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini iqtisodiy baholash asoslari//Sanoat iqtisodiyoti 30.06.2023 tom 24 soni (3) 2023 380-384 b.

⁴ Fokina D.A. Сущность экспортного потенциала предприятий РКП// Актуальные проблемы авиации и космонавтики, 2017 №13 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-eksportnogo-potentsiala-predpriyatiy-rkp/pdf>

eksport faoliyati, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarga minimal xarajatlar bilan tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi. Eksport salohiyati korxona iqtisodiy salohiyatining dinamik tarkibiy qismi bo'lib, u mavjud va mumkin bo'lgan resurslar va vositalardan kelib chiqib, atrof-muhit omillarini hisobga olgan holda korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga yetkazib berish qobiliyatini ta'minlaydi¹.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, korxona salohiyati - bu korxonaning iqtisodiy maqsadlariga erishish uchun mavjud bo'lgan barcha resurslar va imkoniyatlarning umumiy majmuasini anglatadi. Korxonaning eksport salohiyati esa, korxonaning chet el bozorlariga mahsulot va xizmatlarni eksport qilishi, tashqi muhit omillarini hisobga olgan holda korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi va tashqi bozorlarga yetkazib berish qobiliyatidir. Shubhasiz, korxonaning eksport salohiyati uning iqtisodiy salohiyatining ajralmas qismi sifatida, korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Eksport imkoniyatlari orqali korxona yangi bozorlarni zabt etib, global miqyosda raqobatbardoshligini oshiradi va mamlakat iqtisodiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsata olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asari. «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» — Toshkent, 2016.
2. Turaboyev I.I. Sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatning o'rni// So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali// 7-jild 6-son 13.06.2024
3. Ibrohimov I.I. Korxona iqtisodiy samaradorligini oshirish. Innovation in the modern education system //Vol.2 No.24 (2022) 16-21.
4. Fokina D.A. Сущность экспортного потенциала предприятий РКП// Актуальные проблемы авиации и космонавтики, 2017 №13 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-eksportnogo-potentsiala-predpriyatiy-rkp/pdf>
5. Karachev I.A. Определение категории «Экспортный потенциал предприятия» в контексте формирования региональной модели ВЭД. Финансы: теория и практика /Finance: Theory and Practice. 2015;(4):24-37
6. Sukhikh D.G., Katz V.M. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Вестник науки Сибири 2015, №2, (17) 62-75 стр.
7. Dadalko V., Dubkov S. Роль экспортного потенциала в социально-экономической системе// Банковский вестник, май 2013 40-43 стр.
8. Ashurov M.S., Shakirova Y.S. “Korxonalar eksport faoliyati va salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili” // International journal of theoretical and practical research №4, 30.04.2023, 6-18 betlar
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – Yillik hisobotlar va rasmiy statistik ma'lumotlar: stat.uz
10. Kun.uz – <https://kun.uz/news/2024/02/22/ozbekiston-3-mlrd-dollarlik-toqimachilik-mahsulotlarini-eksport-qildi>
11. Textileexpo.uz – <https://textileexpo.uz/uz/yangiliklar/2024-yilda-ozbekistonda-toqimachilik-ishlab-chiqarishi-osdi-lekin-eksport-67-ga-kamaydi>
12. David Cheong, Yvan Decreux, Julia Spies Spotting Export Potential and Implications for Employment in Developing Countries // STRENGTHEN Publication Series Working Paper No. 5 – November 2018
13. R. Hausmann, J. Hwang, D. Rodrik What You Export Matters//Harvard University (John F. Kennedy School of Government) October 2006

¹ Karachev I.A. Определение категории «Экспортный потенциал предприятия» в контексте формирования региональной модели ВЭД. Финансы: теория и практика /Finance: Theory and Practice. 2015;(4):24-37

14. Holzmuller H.H., and Kasper H. (1990) "The Decision-Maker and Export Activity: A Cross-National Comparison of the Foreign Orientation of Austrian Managers" //Management International Review. 30 (3), P.58
15. Войцеховская И. А. Потенциал предприятия как основа его конкурентоспособности // Проблемы современной экономики. 2006. No 1/2 (17/18).
16. Волкодавова Е. В. Теоретические и методологические основы формирования и реализации экспортного потенциала промышленных предприятий: дис.д-ра экон.наук. Самара, 2007. 347 с.
17. University of Mary Washington - <https://economic.development.umw.edu/blog/2022/01/12/5-steps-to-determine-your-market-potential>
18. Genkin B.M., Nikitina I.A. Управление человеческими ресурсами: учебник. – М.: Norma: Infra-M, 2013
19. Ismatullayeva N.N. «Korxona iqtisodiy salohiyati va uning samaradorligini baholash»//Aktual moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali (2024), 4(05), 99-102
20. Манин П. В. Управление экспортным потенциалом промышленных предприятий (на примере Республики Мордовия): дис. канд. экон. наук. Тольятти, 2005. 245 с.